SALOMATLIKNI ASRASHGA YO‘NALTIRILGAN TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOIY ZARURATI

I.B.Mattiyev

Maqolada sog‘liqni asrashga yo‘naltirilgan tafakkurni shakllantirishning ijtimoiy zarurati haqida so‘z yuritilgan hamda yurtimizda bu yo‘nalishda amalga oshirilayotgan ijtimoiy siyosat haqida ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: *salomatlikni asrash, tafakkur, jamiyat, ijtimoiy siyosat, targ‘ibot, barkamol avlod, shakllantirish, tamoyil, yuqumli kasallik, giyohvandlik, zararli odat, jismoniy tarbiya.*

В статье говорится о социальной потребности формирования мышления, направленного на здравоохранение, а так же дана информация о социальной политики в этом направлении в нашей стране.

Ключевые слова: *здравоохранение, мышление, общество, социальная политика, пропаганда, гармонично развитое поколение, формирование, аспект, заразная болезнь, наркомания, вредные привычки, физическая культура.*

The article studies the problems of social requirement of formation of the thinking directed on health care and it contains information about social policy in this direction in our country.

Key words: *health care, mind, society, social policy, propaganda, harmoniously developed generation, organizing, aspect, contagious disease, drug addiction, bad habit, physical training..*

O‘zbekiston Respublikasida mustaqillikning ilk yillaridanoq fuqarolar salomatligini muhofaza qilishga yo‘naltirilgan davlat siyosati olib borildi. Bu siyosatning maqsadi salomatlikni asrash tizimlari faoliyatini xalq manfaatlariga yaqinlashtirish, mavjud salomatlik infrastrukturasini saqlab qolish hamda uni modernizatsiyalashtirishdan iborat. Sog‘lom turmush tarzini targ‘ib etishga e’tibor qaratildi. Milliy pedagogikaga valeologiya, sog‘lom turmush tarzi, sog‘lomlashtirish asoslari kurslari kiritildi. Salomatlikni muhofaza qilish

serqirra tushuncha bo‘lib, uning tarkibiy qismlari juda ko‘p. Biz uning ayrim qirralariga e’tibor qaratish bilan kifoyalanamiz.

Respublikada aholi salomatligini muhofaza qilishning quyidagi tamoyillari qabul qilingan:

- salomatlikni muhofaza qilishga oid inson huquqlarini har tomonlama ta’minlash shart-sharoitlari va talablarini so‘zsiz amalga oshirish, salomatlikni saqlash bo‘yicha davlat kafolatlarini amalga oshirish;

- profilaktika tadbirlarining muntazam, bosqichma-bosqich amalga oshirilishi va davomiyligini ta’minlash;

- salomatlikni muhofaza qilish xizmatining barcha uchun teng, barobar va yengilligini ta’minlash;

- o‘z salomatligiga tahdid tug`ilganda aholining ijtimoiy va huquqiy himoyalanganligi;

- davlat va nodavlat tibbiy tashkilotlarining inson salomatligini asrash va uni muhofaza qilish faoliyati bo‘yicha majburiyatlarni bajarishdagi mas’uliyati.

Milliy qonunchilikda fuqarolar salomatligini muhofaza qilishga yo‘naltirilgan yuzlab farmonlar, qarorlar, qonunlar, qonun osti aktlari ishlab chiqildi va qabul qilindi. Xususan, 1996-yil 29-avgust kuni imzolangan 265-1-sonli “Fuqarolar sog‘lig`ini saqlash to‘g‘risida”gi Qonun negizida yuzlab yo‘nalishlarda islohotlar rivojlantirildi. Salomatlik dasturlariga barcha aholini qamrab olish, yosh bolalarni emlash tizimi faoliyatini muqarrar qilish, aholi bilan salomatlik muassasalari o‘rtasidagi hamkorlikni vujudga keltirish asosida “Ishonch telefonlari”ni tashkil qilish, qishloq aholisini salomatlik dasturlariga qamrab olish, qishloq vrachlik punktlarini vujudga keltirish, aholini sinalgan dori vositalari bilan ta’minlash, dori vositalari sotish faoliyatini yo‘lga qo‘yish, xotin-qizlar va bolalar salomatligi va reproduktiv salomatlik yo‘nalishida tub islohotlarni olib borish, turli infeksion kasalliklarga qarshi kurash olib borish kabilarni ta’kidlab o‘tish joyiz.

Fuqarolar salomatligini muhofaza qilish ishlari maxsus belgilangan davlat rejalari va dasturlari asosida amalga oshirildi. Bular:

a) aholi salomatligini tibbiy jihatdan har tomonlama mukammal muhofaza qilish yo‘nalishi;

b) aholi salomatligini previntiv tarzda muhofaza qilish yo‘nalishi;

v) aholi salomatligini muhofaza qilish uchun keng aholi qatlamlari o‘rtasida targ‘ibot va tashviqot faoliyatini tashkil qilish yo‘nalishi;

g) “barkamol avlod” g‘oyasi asosida jismoniy baquvvat va sog‘lom bo‘lgan yangi avlodni tarbiya qilish yo‘nalishi.

a) aholi salomatligini tibbiy jihatdan har tomonlama mukammal muhofaza qilish yo‘nalishi

Mustaqillik yillarida tibbiy muhofazaning barcha xususiyatlari ilmiy va ijtimoiy jihatdan o‘rganilib, salomatlik muhofazasiga katta e’tibor qaratildi. Eng avvalo yangi mazmundagi sog‘liqni saqlash tizimining qonunchilik asoslari yaratildi. Mamlakat sog‘liqni saqlash tizimi faoliyatini bozor iqtisodiyoti shart-sharoitlariga o‘tkazishda O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash tizimini isloh qilish davlat dasturi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998-yil 10-noyabrdagi PF-2107 son Farmoni alohida ahamiyat kasb etdi.

Har bir qonun hujjati aholi tibbiy muhofazasining bir necha muhim aspektini hal etib berishga yo‘naltirildi. Jumladan, “Fuqarolar sog‘lig`ini saqlash to‘g‘risida”, “Odamning immunitet tanqisligi virusi bilan kasallanishining (OIV kasalligining) oldini olish to‘g‘risida”, “Qon va uning tarkibiy qismlari donorligi to‘g‘risida”, “Nogironlarni ijtimoiy muhofaza qilish to‘g‘risida”, “Aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini aniq yo‘naltirilgan tarzda qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish to‘g‘risida”, “O‘zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to‘g‘risida”, “Aholi o‘rtasida mikronutriyent yetishmasligi kasalliklarining oldini olish to‘g‘risida”, «Alkogolli ichimliklar va tamaki tarqatilishi hamda 20 yoshga to‘lmagan shaxslar tomonidan alkogol iste’mol qilish va tamaki chekishni cheklash to‘g‘risida», «Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida» kabi qonunlar mustaqillik yillarida davlat va jamiyat oldida turgan o‘ta dolzarb vazifa – sog‘liqni saqlash tizimi faoliyatini isloh qilish ishining ba’zi namunalarini namoyish etadi.

Aholi salomatligini muhofaza qilish bir necha yo‘nalishlarda olib borildi. Bu faoliyat go‘daklar va bolalar salomatligi, xotin-qizlar salomatligi va reproduktiv salomatlik, nogironlar va ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlar salomatligi, mehnat yoshidagi fuqarolar salomatligi, keksa yoshdagilar salomatligi yo‘nalishlarida rivojlantirildi. Shu bilan birga, jamiyatdagi tibbiy-ijtimoiy vaziyat bilan bog‘liq ravishda OITS, yuqumli kasalliklar, kamqonlik, temir yetishmovchiligi, bo‘qoq, venerik kasalliklar, go‘daklarni emlash, onalar va bolalar o‘limining oldini olish kabi yo‘nalishlarga alohida e’tibor qaratildi.

Mamlakatda aholi salomatligiga e’tibor qaratish, sog‘lom turmush tarzini targ‘ib etish yo‘nalishida “Sog‘lom avlod” to‘g‘risidagi O‘zR VMning 2000-yil 15-fevraldagi 46-son Qarori, “Ona va bola yili” Davlat dasturi to‘g‘risidagi O‘zR VMning 2001-yil 5-fevraldagi 68-son Qarori, “Qariyalarni qadrlash yili” Davlat dasturi (2002), “Sihat-salomatlik” yili Davlat dasturi (2005), “Ayollar va o‘sib kelayotgan avlod salomatligini mustahkamlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” (2002), “VICH/OITS epidemiyasi tarqalishining oldini olish strategik dasturi”, “Barkamol avlod yili” Davlat dasturi (2002), “Sog‘lom bola Davlat dasturi” (2014) kabi davlat ahamiyatiga

ega bo‘lgan hujjatlar qabul qilindi va amalga oshirildi. Onalar va bolalar salomatligi yo‘nalishi eng e’tiborli yo‘nalishlardan biriga aylandi. Bu borada “Bolalikdan nogironlar tug‘ilishining oldini olish uchun yangi tug‘ilgan chaqaloqlar hamda homilador ayollarda tug‘ma va boshqa patalogiyani barvaqt aniqlash bo‘yicha “Ona va bola skriningi” davlat tizimini tashkil etish to‘g‘risida” O‘zR VMning 1998-yil 1-apreldagi 140-son Qarori, “Ayollar va o‘sib kelayotgan avlod sog‘lig‘ini mustahkamlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” O‘zR VMning 2002-yil 25-yanvardagi 32-son Qarorlari katta tub burilish bo‘lib xizmat qildi. Bu esa o‘z o‘rnida keng aholi qatlamlari salomatligini muhofaza qilish faoliyatini sifat va son jihatidan takomillashtirish uchun imkon yaratdi [1]. Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining «Ta’lim muassasalarida o‘quvchilarning sog‘lom ovqatlanishi uchun shart-sharoitlarni ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori loyihasi ishlab chiqilganligi yoshlar salomatligini muhofaza qilish va turli tibbiy tahdidlar oldini olish borasida muhim ahamiyat kasb etadi.

2005-yil 25-yanvarda O‘zR VMning “Jamiyatda sog‘lom turmush tarzini yanada rivojlantirish, aholi salomatligini mustahkamlash, jismoniy va ma’naviy boy avlodni tarbiyalash, fuqarolarni ommaviy jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanishga keng jalb etish borasida”gi 30-sonli, 2012-yil 23-aprelda “Respublika hududlarida oilada turmush madaniyatini zamon talablari darajasiga ko‘tarish bo‘yicha amalga oshirilishi lozim bo‘lgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi bayonida sog‘lom turmush tarziga amal qilishni ta’minlash choralari belgilandi.

So‘nggi yillarda bir qator dolzarb muammolar yuzasidan davlat dasturlari ijro uchun qabul qilindi, ulardan – “2014-2018 yillarda O‘zbekistonda aholining reproduktiv salomatligini yanada mustahkamlash, onalar, bolalar va o‘smirlar sog‘lig‘ini muhofaza qilish borasidagi Davlat dasturi, “2014–2016 yillarda O‘zbekiston Respublikasida OIV infeksiyasi tarqalishiga qarshi kurashish sohasidagi davlat dasturi”, “Shaxslarning ayrim toifalarini imtiyozli asosda dori vositalari bilan ta’minlash tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” kabilar yuzaga kelgan turli tibbiy va salomatlikka tegishli bo‘lgan muammolarni hal etishga yo‘naltirildi.

Sog‘liqni saqlash tizimidagi islohotlar jarayoni bir necha bosqichlarda amalga oshirildi:

- *ilk bosqich* – o‘tish jarayonida aholining salomatligini muhofaza qilish uchun mavjud imkoniyatlarni saqlab qolish, yangi imkoniyatlar uchun resurslar yaratish, sog‘liqni saqlash tizimini bozor iqtisodiyoti sharoitida rivojlantirish asoslarini yaratish;

- *islohotlar bosqichi* – zamonaviy o‘zgarishlar uchun baza yaratish, sog‘liqni saqlash tizimidagi islohotlar jarayoni uchun qonunchilik asoslarini yaratish, modernizatsiyalashgan yangi mazmundagi sog‘liqni saqlash va aholi salomatligini muhofaza qilish tizimini yaratish.

- *modernizatsiya va innovatsiyalar bosqichi* – sog‘liqni saqlash va muhofaza qilishning butun mamlakat hududini qamrab olgan yangi mazmundagi, zamonaviy innovatsiyalar va tibbiy modernizatsiyaga ega infrastrukturasini yaratish, xususiy tibbiyot maskanlarini rivojlantirish, tibbiyot maskanlari bilan birgalikda salomatlikni previntiv muhofaza qilish, jismoniy tarbiya va sport inshootlari faoliyatini rivojlantirish.

b) aholi salomatligini previntiv tarzda muhofaza qilish yo‘nalishi

Aholi salomatligini muhofaza qilish davlat va nodavlat tashkilotlarining muvofiqlashgan tarzda iqtisodiy, huquqiy, ijtimoiy-madaniy, ilmiy, tibbiy yo‘nalishlarda tashkil qilingan maqsadli tadbirlari majmuasi bo‘lib, bularning barchasi har bir insonning jismoniy va psixologik salomatligini muhofaza qilish, sifatli tibbiy xizmat ko‘rsatishdan iboratdir [2]. Shunga ko‘ra, salomatlikni privetiv muhofaza qilish tizimlari va shakllari mavjud bo‘lib, ularning maqsadi jamiyatda salomatlikni saqlash bo‘yicha vazifalar muntazamligini vujudga keltirishdan iboratdir. Binobarin, mamlakatimizda salomatlikni priventiv muhofaza qilish uchun quyidagi yo‘nalishlarda ish olib boriladi:

- reproduktiv salomatlik muhofazasi, bola tug‘ilishidan oldin turli profilaktik amallarning majburiyligi, skrining markazlari faoliyati, ona va bola salomatligi muhofazasi.

- vaksinatsiya, ya’ni bola tug‘ilishi bilanoq bir qator infeksion va o‘ta xavfli kasalliklarga qarshi emlanishi;

- bolalar salomatligini muhofaza qilish maxsus tizimining yaratilganligi, mazkur sohada kadrlar tayyorlash ishining yo‘lga qo‘yilganligi, bola salomatligini doimiy ravishda muhofaza qilish davlat manfaatlaridan biri sifatida e’tirof etilganligi;

- oila salomatligi davlat e’tiborida ekanligi, oilaviy poliklinikalar tarmog‘ining tashkil qilingani;

- salomatlik targ‘iboti va tashviqoti bilan davlat va nodavlat strukturalarining muntazam shug‘ullanishi, OAV, televideniye va radioda maxsus ko‘rsatuvlarning tashkil qilinayotgani;

- favqulodda holatlar, tabiiy ofatlar va texnogen katastrofalar vaqtida aholi salomatligini muhofaza qilish tizimi yaratilganligi;

- yoshlar o‘rtasida giyohvandlik, narkomaniya, OITS kasalligi, venerik kasalliklar va toksikomaniya, turli spayslardan foydalanishning oldini olish va ularga qarshi kurashish;

- nogironlikning oldini olish, nogironlarning to‘laqonli hayot kechirishi, jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy va

siyosiy sohalariida faol qatnashishlari uchun shart-sharoitlar, imkoniyatlar yaratish, bolalikdan nogiron yoki hayotda orttirilgan jarohatlar natijasida yordamga muhtoj bo‘lgan yoshlarga tibbiy yordam ko‘rsatish;

- jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish orqali aholi, xususan, yoshlar sog‘lom turmush madaniyatini shakllantirish;

- ekologiya, atrof-muhitning sog‘lom turmush tarziga bo‘lgan zararli ta’siri masalalariga ilmiy yondashish;

- aholining ma’naviy va jismoniy rivojlanishiga ta’sir etuvchi zararli odatlarning oldini olish va ularga qarshi kurashish.

v) aholi salomatligini muhofaza qilish uchun keng aholi qatlamlari o‘rtasida targ‘ibot va tashviqot faoliyatini tashkil qilish yo‘nalishi

Respublikada salomatlik muhofazasini targ‘ib va tashviq etishga bir qator davlat va nodavlat tashkilotlari jalb etilgan. Ulardan sog‘liqni saqlash vazirligi va uning viloyatlardagi hududiy birlashma va tashkilotlari, ta’lim tizimi, xususan xalq ta’limi va oliy ta’lim muassasalari, ijtimoiy ta’minot va salomatlik muhofazasining tibbiy-profilaktik tuzilmalari va sanatoriya boshqarmalari, shuningdek fuqarolik jamiyati institutlaridan **“**Sog‘lom avlod uchun”, “Ekosan”, “Kamolot”, Xotin-qizlar qo‘mitalari, Ma’naviyat va ma’rifat jamoatchilik markazlari, “Oila” Markazi, “Oydin hayot” STT targ‘ib qilish markazi, turli fuqarolar tomonidan tashkil qilingan NNTlar, Qizil yarim oy jamiyati, xorijiy vakolatxonalar va elchixonalar faoliyati shular jumlasidandir [3].

Salomatlik muhofazasi bilan preventiv shug‘ullanadigan eng muhim sohalardan biri ommaviy axborot vositalaridir. Bugungi kundagi eng dolzarb masala OAV tuzilmalarini salomatlikni asrashni targ‘ib etish bo‘yicha metodik ishlanmalar, o‘quv-metodik materiallar bilan qurollantirishdir. Ya’ni, salomatlikni asrash faoliyati, bir tomondan, tibbiyot sohasi mutaxassislarining salomatlik bo‘yicha ilmiy bilimlari majmuasini taqozo etsa, ikkinchi tomondan, ilg‘or innovatsion pedagogik shakl, vosita va usullarni talab qilmoqda. Aholini qiziqtirgan yuzlab tibbiy mavzudagi axborotni tez va tizimli berilish taqozo etilmoqda.

g) “barkamol avlod” g‘oyasi asosida jismoniy baquvvat va sog‘lom bo‘lgan yangi avlodni tarbiya qilish yo‘nalishi

O‘zbekistonda mustaqillik yillarida yosh avlodni har tomonlama barkamol qilib voyaga yetkazish g‘oyasi ilgari surildi va mazkur g‘oyani amalga oshirishning mukammal tizimi yaratildi [4, 5]. Yoshlar salomatligini har tomonlama muhofaza qilish, aholining sog‘lom turmush madaniyatini shakllantirish, farzandlarning jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanishlari uchun barcha imkoniyatlarni yaratib berish davlat siyosatining muhim jabhalaridan biriga aylantirildi. Davlat siyosatida farzandlarning ta’lim olishi, ular takomili uchun zarur tibbiy, fiziologik, sport va jismoniy tarbiya infratuzilmasini yaratish, aholini sog‘lomlashtirish faoliyatini maqsadli dasturlar asosida amalga oshirish an’anasiga asos solindi.

Shunday qilib, O‘zbekistonda salomatlikni asrashga yo‘naltirilgan tafakkurni shakllantirish faoliyati ijtimoiy zarurat sifatida e’tirof etildi va umummilliy harakatga aylandi.

Adabiyotlar:

1. Musurmonova O., Sharipova D., Abdurahimova F., To‘ychiyeva G., Riskulova K. Mahallada qizlarni sog‘lom turmush tarzi asosida oilaga tayyorlash. O‘quv kursi dasturi. – T.: O‘zbekiston, 2006. - 32 b.

2. Мухамедиева С.Р. Формы и методы повышения эффективности гигиенического воспитания студентов. Дисс. …. канд.пед.наук. – Т., 2006. – 21 с.

3. Risqulova K. Yoshlar sog‘lom turmush madaniyatini rivojlantirishda nodavlat tashkilotlarning hamkorligi. Ped.fan.nomz… diss. avtoreferati.– T., 2011. – 21 b.

4. Tilovov M.R. Tibbiyot kollejlarida salomatlikni muhofaza qilishga yo‘naltirilgan ta’lim jarayonini tashkil etish. Ped.fan.nomz… diss. avtoreferati. –T., 2009. – 80 b.

5. Xolmatova M. Oilaviy munosabatlar madaniyatini takomillashtirish va sog‘lom avlodni tarbiyalash muammolari. Fals. fan. dokt. ....diss. avtoreferati. –T.: 1998.

Самарқанд давлат чет тиллар институти,
2016 йил 25 мартда қабул қилинган
(Тақризчи: доц. Ш.Алимов)